

17-dars

Darsning mavzusi: Talaffuzida tushib qoladigan va yonma-yon kelgan undoshlar (45 – 48-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarning undosh harflarning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarini mustahkamlash, yonma-yon kelgan undoshlarning talaffuzi, unda yo'l qo'yiladigan kamchiliklar ustida ishlashga o'rgatish; talaffuzda tushib qoladigan undoshlar haqida dastlabki tushunchalarni hosil qilish; talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: kattalarga hurmatda bo'lish, ularni qadrlashga o'rgatish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio matnlarini tinglab tushuna olish.

Dars turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, analiz, mustaqil ish metodi, "So'z tuz" ta'limiy o'yini

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Hushixat daqiqasi:

Gapni oz so'zla, Ishni ko'p ko'zla.

Saylanma diktant. O'quvchilardan saylanma diktant olinadi. Aralash berilgan so'zlar ichida talaffuzida tushib qoladigan undoshlari bor so'zlar yozdiriladi.

Baxt, devor, diktant, payvand, eshik, ilm, g'ayrat, do'st, Toshkent, vaqt, xalq, kaft, bahramand, daromad, so'ng, mashhur, to'rt.

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

O'ngga, **chapga**, **orqaga**

Va bir qadam **oldinga!**

Endi chapak chalamiz, Chuqur nafas olamiz.

O'tiramiz, turamiz, O'ngga, chapga yuramiz.

Qo'llarimizni yoyib Chuqur nafas olamiz.

O'tiramiz stulga, Jilmayamiz olamga.

Diqqatimizni jamlab, Quloq tutamiz darsga.

III. Mustahkamlash.

45-mashqdagi test topshiriqlari ustida ishlanadi.

1. Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar qatorini belgilang.

To'g'ri javob: A) *katta, hissa, kakku*

2. "Tanaffus" so'zida qaysi undosh tovush yonma-yon kelgan?

To'g'ri javob: A) *f*

3. Faqat yonma-yon kelgan unlilar berilgan qatorni toping.

To'g'ri javob: D) *taajjub, manfaat, taassurot*

46-mashqda keltirilgan ertak o'qitilib, mazmuni haqida suhbatlashiladi.

So'ng ertak matnidagi yonma-yon undoshlar ishtirok etgan so'zlar topiladi.

Yonma-yon kelgan undoshli so'zlar: *hatto, turp, daraxtlar, jajji.*

47-mashq yozma bajariladi. Xato yozilgan so'zlar ustida ishlanadi.

Ey farzand! Har qadamingni o'ylab bos. Mulohaza bilan ish qil. Doimo kamtar bo'l, xalqqa xizmat qil. Kamtarga kamol, manmanga zavol, degan maqolni aslo unutma. Bu sening shioring bo'lsin.

Mustahkamlash uchun topshiriq. Berilgan rasmlardan foydalanib savollarga javob bering.

1. O'zbekistonning markaziy shahri nomini ayting – Toshkent. **2.** Biror o'simlik boshqa o'simlik tanasiga ulab o'tkazish usuli – payvand. **3.** Ota-onaning o'g'li yoki qizi yana qanday ataladi – farzand. **4.** Chorvadan olinadigan oziq-ovqat mahsuloti – go'sht. **5.** Insonning sirdoshi, uning eng yaqin kishilaridan biri – do'st. **6.** Bo'y cho'zib, shoxlar chiqarib o'sadigan o'simlik – daraxt. **7.** Amir Temur hukmronligi davridagi poytaxt Shahar nomi – Samarqand. **8.** Bolalarning sevimli shirinligi nomi – xo'rozqand.

Yonma-yon kelgan undoshlar talaffuzi va imlosi ustida ishlanadi.

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

48-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOP ETISH UCHUN EMAS!